

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, A.A.Ergashev

Alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari 7

J.E.Tursunov

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

FALSAFA, SIYOSAT

N.S.Normatov, Z.S.Jumanov

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

M. B.Xudaybergenova

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti 26

TARIHX

M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari 30

O.V.Mahmudov

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni 45

D.A.Aytimova

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarining shakllanishi va rivojlanish tarixidan 49

B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari 54

Sh.T.Quldashev

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil 66

Q.Sulaymonov, D.Madaminov

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati 72

Z.N.Xatamova

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida 76

I.M.Burxonov

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinboyev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi 84

A.N.Maxmudova

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari 88

A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili 91

D.A.Ismoilova

Turkiston o'lkasida kon-metallurgiya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). 96

E.L.Gasanov

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida 101

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov

Mirtemirning she'riy mahorati xususida 106

Z.A.Rahimov

Tarixiy romanda syujet va xarakter 110

F.Isomiddinov

Irim-sirimlar 115

D.M.Xoshimova

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi 120

**«O'RTA ASR YEVROPA TARJIMA MARKAZLARI» TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY
ISTE'MOLIGA OID****О ПОНЯТИИ «ПЕРЕВОДЧЕСКИЕ ЦЕНТРЫ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЕВРОПЫ» И ЕГО
НАУЧНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ****ABOUT THE CONCEPT OF «TRANSLATION CENTERS OF MEDIEVAL EUROPE» AND
IT'S SCHOLARLY USE****Mahmudov Otabek Valijonovich¹****¹Mahmudov Otabek Valijonovich**

–Farg'ona davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrasini mudiri, PhD., dotsent.

Annotatsiya

Maqolada XII–XV asrlarda Yevropaning tarjima faoliyati yo'lga qo'yilgan shaharlarini yagona tizim sifatida «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» sifatida nomlash konsepsiyasi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Muallif tarjima tarixiga oid lotin tilli manbalar tahlili asosida o'rta asr Yevropa tarjima markazlarining faoliyatini 3 bosqichga ajratish, ulardan XII–XIII asrlarni o'z ichiga olgan birinchi davrni – Yevropada arabshunoslik sohasining yuzaga kelishidagi ilk bosqich sifatida baholash lozim, degan xulosa kelgan.

Аннотация

В статье теоретически обоснована концепция наименования городов Европы XII–XV вв., в которых была налажена переводческая деятельность, как единой системы «центров перевода средневековой Европы». На основании анализа латинских источников по истории перевода автор пришел к выводу, что деятельность средневековых европейских переводческих центров следует разделить на 3 этапа, из которых следует оценить первый период, охватывающий XII–XIII века, как ранний этап становления арабистики в Европе.

Abstract

The article theoretically substantiates the concept of naming the cities of Europe of the XII–XV centuries, in which translation activities were established, as a unified system of «The translation centers of medieval Europe». Based on the analysis of Latin sources on the history of translation, the author concluded that the activities of medieval European translation centers should be divided into 3 stages, from which the first period, covering the XII–XIII centuries, should be evaluated as an early stage of the formation of Arabic studies in Europe.

Kalit so'zlar: O'rta asrlar, Yevropa, Ispaniya, Italiya, janubiy Fransiya, tarjima, tarjimonlar, tarjima markazlari, arab, lotin, ibroniy, lotin tilli manbalar, tahlil, konsepsiya, bosqichlar.

Ключевые слова: средневековье, Европа, Испания, Италия, Южная Франция, перевод, переводчики, центры перевода, арабские, латинские, ивритские, латинские источники, анализ, концепция, этапы.

Key words: Middle Ages, Europe, Spain, Italy, Southern France, translation, translators, translation centers, Arabic, Latin, Hebrew, Latin sources, analysis, concept, stages.

Kirish. Fan tarixidan yaxshi ma'lumki, Yevropada o'rta asrlarda yuz bergan ilmlar taraqqiyotiga IX–XII asrlarda yashab-ijod qilgan musulmon Sharqi allomalarining ilmiy merosi katta ta'sir ko'rsatgan. Shu sababdan, mazkur masala hozirgi kunda ham nafaqat fan tarixchilari, sharqshunos va mediyevistlar, balki tarix fanlarining boshqa sohalarida tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar va hatto havaskor tarixchilar eng ko'p qiziquvchi mavzulardan sanaladi. Qiziqishning yuqoriligi mavzu doirasida turli daraja va saviyadagi tadqiqotlarini son jihatdan ko'payishiga sabab bo'lgan ersa-da, mavzuning asl mohiyatini ochib beruvchi – allomalar asarlarining Yevropaga qanday kirib borganligi, ularning dastlabki lotincha tarjimalarini yaratilishi, bu jarayonda ishtirok etgan tarjimon-olimlarning faoliyati kabi masalalarga hanzuz kam e'tibor qaratilmoqda. Shu sababdan ham, mintaqamizda yaratilgan ilmiy va o'quv adabiyotlarida allomalar asarlarini Yevropada tarjima etilishi xususidagi, ayniqsa, dastlabki tarjimalari to'g'risidagi ma'lumotlar umumiy xarakterga ega bo'lib qolmoqda. Ya'ni bu turdagi ishlarda, gap biror-bir alloma asarini XII–XIII asrlarda Yevropada tarjima etilishi xususida borganda, ko'pincha, asarning tarjima qilingan asrini keltirish bilangina cheklaniladi. Asar tarjimoni kimligi, tarjimachilik ishi qanday uslubda, qachon, qayerda amalga oshirilgani, mazkur tarjimaning mintaqa ilmlari rivojida ahamiyati qay darajada bo'lganligi xususidagi masalalarga e'tibor qaratilmaydi. Shuningdek, bu tur tadqiqotlarda ma'lumotlarning asosiy qismi o'tgan asrning 70–80-yillarida nashr etilgan bio-bibliografik asarlardan tasarruf etilganligi bois, ulardagi mavzuga

TARIX

oid dalillar bir-biriga o'xshash qaytariqlardan iborat. Ayni holatlar yurtimizda yaratilgan mahalliy tadqiqotlarga ham birdek xosdir.

Masalani XII–XIII asrlardagi lotin tarjimachiligining «o'chog'i»dan turib tadqiq etishga uringan yevropalik aksar mutaxassislar o'z ishlarida tarjima tarixiga oid lotin tilli manbalarga asoslanganliklari bois, ular tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda aniqlik ustunlik qiladi. Shunday bo'lsa-da, mintaqa tadqiqotchilari o'z ishlarida asosiy va «yashirin» urg'uni musulmon Sharqi allomalari asarlarini tarjima qilinishi yoki yaratilgan tarjimalarni mintaqadagi ilmlar rivojiga qo'shgan hissasiga emas, balki arab tilidan tarjima qilingan kitoblar asosida o'zlarini «yanada mukammalroq» asarlarini yozgan yevropalik mahalliy olimlar faoliyatiga qaratishadi.

Boshqacha qilib aytganda, sharqshunoslik an'analariga asoslangan ishlarda o'rta asrlarda G'arbda yuz bergan ilmlar rivojiga Sharq allomalari ilmiy merosining beqiyos ta'sir etganligini isbotlashga urinish qanchalik kuchli bo'lsa, mediyevisitik ruhdagi tadqiqotlarda Sharq allomalari asarlarini «ikkinchi plan»da, ya'ni jarayonlarning «orqa foni»da ko'rsatishga moyillik shunchalik yuqoridir.

Yuqoridagi kabi paradoks holatlarni inobatga olgan holda so'nggi yillarda respublikamizda musulmon Sharqi olimlari, shu jumladan, Markaziy Osiyo allomalari asarlarining XII–XIII asrlarda Yevropada tarjima qilinishi va yaratilgan tarjimalarning fandagi dastlabki tatbiqiga oid maxsus ilmiy tadqiqot olib borilib, Sharq va G'arb ilmiy adabiyotlarida mavjud bo'lgan bu boradagi bo'shliqlarni to'ldirishga harakat qilinmoqda.

Qayd etish joizki, Yevropa tarjimachiligining XII–XIII asrlardagi tarixi mintaqa olimlari tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lib, ularning aksar qismi fundamental tadqiqot darajasida. Shunga qaramasdan, ayni davrda arab tilidagi asarlarni lotin, ibroniy yoki boshqa mahalliy tillarga o'girish ishi yo'lga qo'yilgan Pireney yarim oroli, Italiya hamda janubiy Fransiya shaharlaridagi tarjimachilik ishlari umumiy bir kontekstda o'rganilmay qolmoqda. Balki, shuning uchun ham tarjima tarixidagi ushbu bosqichni qanday nomlash borasida fan tarixchilari tomonidan hanuz biror bir nazariya yohud konsepsiya ilgari surilmagan. Biz, IX–XII asrlarda ijod qilgan musulmon Sharqi allomalari asarlarini Yevropada tarjima qilinishiga oid masalalarni yoritishga bag'ishlangan tadqiqotimiz natijalariga asoslanib, XII–XIII asrlarda Yevropaning tarjima faoliyati yo'lga qo'yilgan shaharlarini umumiy bir nom bilan atash va ularni yagona tizim sifatida baholash lozim, degan xulosaga keldik. Mazkur maqolada bu boradagi qarashlarimizni nazariy jihatdan asoslashga harakat qilamiz.

Adabiyotlar sharhi. Yuqorida qayd etilganidek, o'rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida olib borilgan tarjimachilik ishlari tarixini o'rganish borasida mintaqa olimlari salmoqli ishlarni e'lon qilishgan. Quyida tadqiqot natijalari o'z davri uchun mutloq yangilik darajasida bo'lgan ayrim muhim ilmiy ishlar xususida to'xtalamiz.

Mashhur fransuz olimasi, Britaniya akademiyasi hamda Xalqaro fan tarixi akademiyasi a'zosi Mariya-Tereza de-Alverniy (1903–1991) ayni sohada muhim izlanishlar olib borgan. Olimaning «Translations and translators» («Tarjimalar va tarjimonlar») [3] nomli yirik maqolasi tarjima tarixiga oid asosiy tadqiqotlardan biri sanaladi. Unda o'rta asrlarda Ispaniya va Italiyaning markaziy shaharlarida ijod qilgan tarjimonlar hamda ular tomonidan yaratilgan tarjimalarga taalluqli ma'lumotlar aks etgan.

Tarjima tarixiga oid masalalarni o'rganishda Londondagi Varburg instituti professori Charlz Bernettning xizmatlari alohida o'rin tutadi. Uning «A group of Arabic-Latin Translators Working in Northern Spain in the Mid-12th Century» («Shimoliy Ispaniyadagi arab – lotin tarjimonlar guruhining XII asr o'rtalaridagi faoliyati») [6] hamda «The Translating Activity in Medieval Spain» («O'rta asrlarda Ispaniyadagi tarjimachilik faoliyati») [8] nomli maqolalarida mavzu yuzasidan chuqur mulohazalar yuritiladi. Shuningdek, olimning «The Coherence of the Arabic-Latin Translation Program in Toledo in the Twelfth Century» («XII asrda Toledodagi arab – lotin tarjima dasturining aniqligi») [7] deb nomlangan maqolasida o'sha davrda yaratilgan tarjimalar xususida tanqidiy fikr yuritilgan bo'lib, unda tarjimonlar yo'l qo'ygan kamchiliklar bayon etiladi. Bundan tashqari, muallif o'ziga qadar e'lon qilingan sohaga oid ko'plab tadqiqotlarni nazariy jihatdan tahlil qilish asnosida ulardagi turli xatoliklarni aniqlab, tuzatishlar kiritgan.

XII–XIII asrlarda Italiya hududidagi dastlabki tarjima markazlaridan biri hisoblagan Salerno tibbiyot maktabining tarixini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ichida o'rta asr tibbiyot tarixi

bilimdoni, ingliz shifokori Brayn Loun (1905–2001)ning «The Salernitan Questions» («Salerno savollari») [10] nomli asari muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda muallif maktabning tashkil topishi va faoliyatini o'rta asr lotin tilli manbalar asosida yoritib berishga harakat qilgan.

Italiyaning Palermo va Neapol shaharlarida tarjimachilikning yo'lga qo'yish va rivojlantirish ishlariga boshchilik qilgan imperator Fridrix II (1220–1250)ning arab tilidagi asarlarni lotin tiliga tarjima qiluvchi olimlar jamoasini tashkil qilish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlariga oid masalalar Pyer Tuber va Avgustino Paravachini Baglianining hammualliflikdagi «Federico II e le scienze» («Fridrix II va ilmlar») [21] nomli asarida muayyan darajada tahlil etilgan.

XIII asrdagi tarjimachilik ishlarining muhim markazlaridan yana biri janubiy Fransiyadagi Monpelye tibbiyot maktabi hamda uning asosida tashkil etilgan universitet tarixini o'rganish borasida fransuz harbiy shifokori va tarixchisi Lui Dyule (1917–2003)ning «La médecine à Montpellier» («Monpelyedagi tibbiyot») [9] nomli 6 jilddan iborat asari muhim o'ringa ega. Asarning birinchi jildi bevosita o'rta asrlar tarixiga bag'ishlagan bo'lib, unda shahardagi tibbiyot maktabi va universitetida yo'lga qo'yilgan tarjima jarayoni muallif e'tiboridan chetda qolmagan. Asar o'z davrida Fransiya Fanlar akademiyasi tomonidan o'rta asrlar tibbiyot tarixiga oid eng ishonchli ilmiy adabiyot, deb e'tirof etilgan. Shunga qaramay, unda ayrim munozara talab jihatlar mavjud. Jumladan, muallif Monpelye tibbiyot maktabining tashkil topgan sanasini biror bir manbaga asoslanmagan holda 1137-yil [9: P. 24] deb ko'rsatadi. Natijada, ushbu maktabning tashkil topishiga oid fanda mavjud bo'lgan mulohazalar yana bittaga ortib, keyingi davr tadqiqotchilarining bu boradagi chalkashliklariga sabab bo'lgan. Biz, mazkur maktab tarixiga oid lotin tilli manbalar tahlili va ayni mavzu yuzasidan olib borgan tadqiqotimiz natijalariga asoslanib, uning rasman tashkil topgan sanasi 1220-yil, degan xulosa keldik.

O'rta asrlarda Yevropada olib borilgan tarjima faoliyatini davrlashtirishga dastlabki urinishni Leon universiteti (Ispaniya) professori Hulo Sezar Santoyoning 2004-yilda chop qilingan «La edad media» («O'rta asrlar») [20] nomli maqolasida uchratish mumkin. Biroq, muallif xulosalari mavzuga oid manbalarga emas, balki turli yillarda e'lon qilingan tadqiqotlarga asoslanganligi sababli o'ta munozara talabdir. Bu borada, muallifning o'rta asrlar tarjima tarixidagi ikki muhim markaz – «Bayt al-hikma» va Toledo maktabining muassasa sifatida mavjud bo'lganligiga oid farazlari soha mutaxassislarining e'tirozlariga sabab bo'ldi. Biz, ayni masala yuzasidan o'z pozitsiyamizni «Toledo maktabi – afsona yoki haqiqat: H.S.Santoyo va A.Kalashnikovga raddiyalar» [1] nomli maqolamizda batafsilroq asoslab berishga harakat qilganmiz.

O'rta asr Yevropa tarjima markazlari faoliyatini umumiy kontekstda yoritishga urinish esa Eliza Borsari muharrirligi ostidagi «Translation in Europe during the Middle Ages» («O'rta asrlarda Yevropada tarjima jarayoni») [22] nomli monografik tadqiqotda amalga oshirildi. Yevropalik soha mutaxassislari hammuallifligidagi ushbu ish mavzuga oid eng so'nggi tadqiqot natijalarini o'zida mujassam etsa-da, unda o'rta asrlarda G'arb mamlakatlarida yo'lga qo'yilgan tarjima faoliyatining xronologiyasi XIV–XV asrlar bilan chegaralanadi. Buning natijasida, asarda o'rta asr Yevropa tarjima tarixining birinchi bosqichi hisoblangan XII–XIII asrlardagi tarjima jarayonlari yoritilmay qolgan. Biz, o'rta asr Yevropa tarjima markazlarining shakllanish bosqichi va ularning geografik tasnifiga doir fikrlarimizni maqolaning to'rtinchi qismida bayon etamiz.

Tadqiqot usullari. Mavzuni yoritishda tarixiylik tamoyili, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik, tasniflash, kompleks yondashish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar / Анализ и результаты / Analysis and results. Maqolaning birinchi va ikkinchi qismida ta'kidlanganidek, o'rta asr tarjima tarixiga oid manbalar hamda ilmiy tadqiqotlarda XII–XIII asrlarda Yevropaning turli shaharlarida olib borilgan tarjimachilik faoliyati umumiy bir nom bilan atalmagan va bu borada aniq taklif yoki fikr-mulohazalar ilgari ham surilmagan. Bizningcha, ayni holatga bevosita va bilvosita mushtarak tarjima jarayoni kechgan Pireney yarim oroli, Italiya hamda Fransiyaning janubiy hududlaridagi tarjimachilik faoliyati tarixini kompleks ravishda tadqiq etilmaganligi, boshqacha aytganda, ularni umumiy bir kontekstda va rakursda tahlil qilinmaganligi sabab bo'lgan.

Mavzu yuzasidan olib borgan tadqiqot natijasida, XII–XIII asrlarda Yevropada tarjimachilik ishlari asosan 13 ta shahar – Barselona, Mursiya, Pamplona, Saragosa, Sevilya, Segoviya, Toledo hamda Neapol, Paduya, Palermo, Salerno, shuningdek Marsel va Monpelyeda olib borilganligi aniqlandi. Mazkur shaharlarini geografik jihatdan uch guruhga ajratib, ularni Pireney yarim oroli,

TARIX

Sitsiliya va Italiya, Provans shaharlari, deb atash to'g'ri bo'ladi. Zamonaviy davr nuqtayi-nazaridan ularni Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya shaharlari sifatida tasniflash lozim.

Sanab o'tilgan shaharlarda turli sohalarga oid arab tilidagi 200 ga yaqin asarlar o'sha davrning ilmiy tili hisoblangan lotin tiliga o'girilgan. Ko'rib o'tilayotgan davrda Ispaniyadagi tarjima faoliyatining bosh markazi Toledo maktabi hisoblangan bo'lsa, Sitsiliyada bu vazifani Palermo, Italiyada Salerno tibbiyot maktabi, janubiy Fransiya esa Monpelye maktabi bajargan.

Mazkur shaharlarda yashab-ijod qilgan tarjimonlar o'rtasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning tarjimachilik ishlari markazlashtirilgan holda ma'lum mutasaddilar tomonidan o'zaro muvofiqlashtirilgan va boshqarib borilgan. Jumladan, XII asrda Pireney yarim oroli hududida arab – lotin tarjima jarayonlari tashkil etishda shaxsan boshchilik qilgan Pyer de Montboissier (1094–1156)^{*1} o'zining «Summa totius haeresis Saracenorum» («Musulmonlarning tartib qoidalari») [15, 16] nomli asarida Barselona, Pamplona, Saragossa va Toledo hamda janubiy Fransiya shaharlarida ijod qilgan tarjimonlarni o'zaro hamkorligi to'g'risida ma'lumot berib, ushbu hamkorlik doirasida 1142–1143 yillarda «Qur'on» lotin tiliga tarjima qilgan [14: P. 15]ligini qayd etadi.

Bu borada, Rodrigo Ximenes de Rada (1170–1247)^{*2}ning «De rebus Hispaniae» («Ispaniya bo'yicha savollar») [17] va «Historia arabum» («Arablar tarixi») [18] nomli asarlari ham muhim ahamiyatga ega. Har ikki asarda ham Toledo, Barselona va Saragossa tarjimonlarining o'zaro hamkorligi, ayni davrdagi tarjimachilar va ular tomonidan yaratilgan bir qancha tarjimalar, ish jarayonida qo'llanilgan uslublarga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Misol uchun, «De rebus Hispaniae»da Toledo maktabi boshqaruvchisi arxiyepiskop Raymondo de Salveta (1125–1152) 1130-yilda Barselonaning o'sha vaqtdagi grafi Ramon Berenger III (1097–1131)^{*3}ga maktub yo'llab, undan Barselona tarjimonlari *Avraam* [bar-Hiya] va [Tivolalik^{*4}] *Platonga asarlarni tarjima qilish uchun shaharning bosh cherkovi hisoblangan Muqaddas Pablo ibodatxonasi*^{*5}dan joy ajratishni va ularga hayot kechirish uchun ma'lum miqdorda pul berishni yoki kunlik ehtiyojlari uchun oziq-ovqat bilan ta'minlashini [17: P. 75] iltimos qilganligi yozilgan. Mazkur ma'lumot Barselona tarjimonlarining faoliyati o'z davrida Toledo maktabi ma'murlari tomonidan qo'llab-quvvatlangani hamda ma'lum doirada boshqarib turilgan, deb xulosa qilishga asos bo'ladi. Bundan tashqari, tarjimonlarni lotin tiliga o'girilishi lozim bo'lgan arab tilidagi asarlar bilan ham maktab rahbariyati ta'minlab turganligini anglatadi.

Toledo, Sevilya va Mursiya shaharlarida hamkorlikda olib borilgan tarjimachilik ishlarini yoritishda mazkur ishlarga bevosita rahnamolik va homiylik qilgan qirol Alfonso X (1252–1284) muallifligi ostida yozilgan «Estoria de España» («Ispaniya tarixi») [2] nomli asar ham muhim

^{*1}Fransuz olimi va yozuvchisi, diniy arbob. Fransiyaning Overn shahridan. Fan tarixida Petrus Venerabilis (Pyotr Izzatli) ismi bilan mashhur bo'lgan. 1122–1156-yillarda Burgundiya'dagi Klyuniya cherkovi abbati hisoblangan. Ispaniyaga amalga oshirgan sayohati davomida Kastiliya va Leon qiroli Alfonso VII (1126–1157) bilan uchrashib, undan Pamplona shahridagi tarjimonlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashini iltimos qilgan. Olimni yuqoridagidan tashqari, «Liber contra sectam sive heresim Saracenorum» («Tariqatning raddiyasi va musulmonlar bid'ati») nomli asari ham mavjud.

^{*2}Ispaniyaning Navarra hududida tavallud topgan davlat va din arbobi, sarkarda va tarixchi. 1208-yilda Osmo shahri, 1209-yilda Toledo shahrining arxiyepiskopi lavozimiga tayinlangan. Keyinchalik butun Kastiliya qirolligining kansleri deb e'lon qilinadi. Uning faoliyati Kastiliya qirollari Alfonso VIII (1158–1214), Enrike I (1214–1217) va Fernando III (1217–1252) hukmronlik yillariga to'g'ri keladi. Rim papasi Gonoriy III (1216–1227) topshirig'iga binoan beshinchi salb yurishi (1217–1221)ning dastlabki bosqichida ishtirok etgan. De Rada Ispaniya tarixi bo'yicha yozilgan lotin tilidagi dastlabki asar muallifi hisoblanganligi bois, u ispan tarixshunosligining asoschisi sifatida e'tirof etiladi.

^{*3}1082–1131-yillarda yashagan davlat arbobi. Faoliyat davrini asosiy qismini graflik hududini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlashga qaratilgan harbiy harakatlarda o'tkazgan. O'rta dengizning shimoli-g'arbiy sohillaridagi hukmronlikni qo'lga kiritish uchun al-Murobitunlar amirligiga qarshi janglar olib borgan.

^{*4}O'zbek tili imlo qoidalariga asosan joy nomlariga «lik» qo'shimchasi qo'shilgach, u matn ichida kichik harf bilan yoziladi. Biroq, maqolada Tivolalik, Sevilyalik, Ispaniyalik va boshqalar shaxslarning nisbasi sifatida ishlatilmoqda. Shu boisdan ular katta harfda yozilgan. Misol uchun, Sevilyalik Xuan ismi lotinchada Johannes Hispalensis, inglizchada John of Seville, ruschada esa Иоанн Севильский tarzida yoziladi. Bundan tashqari, tarjimonlar ismlarining turli tillarda turlicha talaffuz qilinishini ham qayd etish lozim. Jumladan, Xuan ismini Ioann, Jon; Jerard ismini Gerard, Herardo; Maykl ismini Mixail, Mikoil tarzida va h.k.

^{*5}Ispancha San Pablo del Campo deb nomlanuvchi mazkur cherkov taxminan IX asr o'rtalarida bunyod etilgan. Inshootning XVII asrda ta'mirlangan qismlari hozirga qadar saqlanib qolgan.

ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, asarda Sitsiliya va Italiyadagi tarjima ishlarini rivojlantirishda Toledo maktabi a'zolarining faoliyatiga oid ayrim qimmatli ma'lumotlar ham qayd etilgan. Ayni masala yuzasidan Salimbene de Adam (1221–1288)^{*6}ning «Cronica» («Yilnoma»)si [19] ham muhim manba hisoblanadi. 1168–1287-yillarda sodir bo'lgan voqealarni o'z ichiga oluvchi mazkur yilnomada imperator Fridrix II (1220–1250) tashabbusi bilan Palermoga qo'shni hududlardan tarjimonlarni taklif etilishi, ularning ish uslublari va yaratgan tarjimalari, imperator vafotidan so'ng Palermodagi tarjimachilik ishlarining ahvoli kabi masalalarni yoritishga asos bo'luvchi ma'lumotlar jamlangan. Bundan tashqari, asarda imperator Fridrix II va Toledo maktabi a'zosi hisoblangan tarjimon Maykl Skot (1175–1234) munosabatlariga [19: P. 568–623] ham alohida e'tibor qaratilgan.

Italiyaning Neapol, Paduya, Palermo, Salerno shaharlarida tarjima ishlari o'zaro bog'liq holda olib borilganligi, shuningdek, ularni Ispaniyaning Barselona va Toledo, janubiy Fransiyaning Marsel va Monpelye shaharlaridagi tarjima jarayonlari bilan bevosita mushtarak kechganligiga oid ma'lumotlarni Benyamin mi-Tudela (1130–1173)^{*7}ning «ספר המסעות» [Сефер ха-Маца'от] («Sayohatnoma») [5], Jovanni Villani (1274–1348)^{*8}ning «Nuova Cronica» («Yangi solnoma») [23], Antonio Matssa (vaf. 1692)^{*9}ning «Historiarum epitome de rebus Salernitanis» («Salernoliklarning muvaffaqiyat tarixi») [14], Jan Astryuk (1684–1766)^{*10}ning «Mémoires pour servir à l'histoire de la Faculté de médecine de Montpellier» («Monpelye tibbiyot maktabi tarixiga bag'ishlangan memuarlar») [4] nomli asarlarida ham uchratish mumkin. Biz yuqorida sanab o'tilgan barcha manbalarni batafsil tahlil qilib, tahlil natijalarini o'zimizning avvalgi ishlarimizda to'liq bayon etganmiz. Lotin tilli manbalar tahlilining eng muhim natijalaridan biri shuki, XII–XIII asrlarda Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya shaharlarida olib borilgan tarjima faoliyati bevosita va bilvosita mushtarak jarayon sifatida yo'lga qo'yilgan edi.

Ayni sohada olib borgan avvalgi bosqichdagi tadqiqotimiz xulosalari hamda joriy bosqichdagi izlanishlarimiz natijalariga asoslanib, XII–XIII asrlarda Yevropaning tarjima ishlari olib borilgan shaharlarini umumiy bir nom bilan «**O'рта asr Yevropa tarjima markazlari**» deb atash har jihat to'g'ri bo'ladi, degan xulosaga keldik. Mazkur tushunchani ilmiy iste'molga kiritilishi bilan Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya shaharlarida yo'lga qo'yilgan tarjimachilik ishlarini **yagona tizim** sifatida ifodalash mumkin bo'ladi.

^{*6}Asl ismi Balian de Sidon. Italiya shimolidagi Parma shahrida zodagon oilasida tavallud topgan. Umrining asosiy qismini Italiya va Fransiya hududlaridagi shaharlarga sayohat qilib o'tkazgan. Jumladan, u Lukka, Siyena, Piza, Kremona, Parij, Lion, Marsel, Genuya, Ferrara, Verona kabi yigirmaga yaqin shaharlarda istiqomat qilgan. Uning ona shahri bo'lmish Parma imperator Fridrix II tomonidan qa'mal qilinib, vayron qilinganligi bois, o'zining yuqoridagi asarida imperatorning salbiy jihatlarini oshirib ko'rsatishga harakat qilgan.

^{*7}Yahudiy millatiga mansub sayyoh olim. Asli Ispaniyadagi Navarra viloyatining Tudela shahridan. 1165–1173-yillarda Quddus shahriga amalga oshirgan sayohati davomida Marsel, Rim, Konstantinopol, Damashq va Bag'dod shaharlarida bo'lgan. O'z sayohati davomida kundalik yuritgan. Mazkur kundaliklar yuqoridagi nom bilan ilk bor 1543-yilda Konstantinopolda ibroniy tilida nashr etilgan. 1881-yilda asar rus tiliga ham tarjima qilingan.

^{*8}Italyan davlat arbobi, bankir va solnomachisi. Florensiyalik savdogarlar oilasida tavallud topgan. 1316-yilda shahar g'aznasining nazoratchiligiga tayinlangan. 1324-yilda Buonakkorsi savdo tashkilotining rahbarligiga saylanadi. 1348-yilda shaharda tarqalgan o'lat natijasida vafot etgan. «Nuova Cronica» asarining e'tiborga loyiq yana bir jihati shundan iboartki, unda mashhur italyan shoiri Aligeri Dante (1265–1321) tarjimai holiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur asarning dastlabki olti jildi bevosita Jovanni Villani tomonidan yaratilgan. Keyinchalik asarni muallifning ukasi Matteo Villani (1285–1363) davom ettirib unga VII dan XI gacha bo'lgan jildlarni qo'shadi va asardagi voqealar xronologiyasini 1363-yilga qadar uzaytiradi. O'z navbatida, M.Villani tomonidan tayyorlangan XI jildga uning o'g'li Filippo Villani (1325–1405) qo'shimchalar kiritib, asardagi voqealarni 1364-yilgacha qamrab olinishini ta'minlaydi.

^{*9}Muallif Yevropada tarixnavislik va noshirlik ishini ancha taraqqiy etgan XVII asrda yashaganligiga qaramasdan u haqidagi ma'lumotlar juda kam saqlangan. Jumladan, 1678–1692-yillarda Salerno tibbiyot maktabini boshqarganligi va 1681-yilda yuqoridagi asarini chop ettirganligiga oid ma'lumotlar saqlangan, xolos. Hatto mazkur nashrda ham muallif to'g'risida biror-bir ma'lumot berilmagan.

^{*10}Janubiy Fransiya davlati Sov shahridan bo'lgan shifokor, nazariyotchi olim. 1700-yilda Monpelye universitetini tamomlab, falsafa magistri darajasini olgan. 1703-yilda doktorlik darajasiga erishadi. 1706-yilda Qirollik ilmiy jamiyatining a'zolariga tayinlangan. 1731-yildan Qirollik kolleji tibbiyot kafedrasini mudiri sifatida faoliyat boshlagan. Bu vaqt mobaynida u Fransiya qiroli Lyudovik XV (1715–1774)ning shifokori ham hisoblangan. Hayoti davomida 20 dan ortiq tibbiyotga doir asarlar yozib qoldirgan.

TARIX

Ayni o'ringda, o'rta asr Yevropa tarjima markazlari faoliyatining **xronologiyasi** XII–XIII asrlar bilan chegaralanmasligini ham qayd etish o'rinlidir.

Sohadagi izlanishlar va ularning natijalariga asoslanib o'rta asr Yevropa tarjima markazlarining faoliyatini xronologik jihatdan quyidagi **3 bosqichga** ajratish lozim, degan xulosa keldik:

I bosqich – XII–XIII asrlarni o'z ichiga olib, tarjima jarayonlari asosan yuqorida sanalgan 3 ta hududda yo'lga qo'yilgan. Ayni davrda asarlar, shu jumladan, antik davr mualliflarining kitoblari ham ko'pincha arab tilidan lotin tiliga o'giriladi. Tarjimonlarning ish faoliyatida so'zma-so'z metodi bilan birga erkin hamda vositachi tildan tarjima qilish uslublaridan keng foydalanilganligi ushbu bosqichning o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi.

II bosqich – XIV asr bilan belgilanuvchi mazkur bosqichda tarjima markazlari geografiyasi kengayib, tarjimachilik ishlari shimoliy Fransiya, Germaniya va Britaniya hududlarida ham shakllana boshlaydi. Bu bosqichda asarlar arab tilidan emas, balki ko'pincha ularning ayni davrda yaratilgan yahudiycha nusxalari asosida lotin tiliga tarjima qilingan.

III bosqich – XV asrni o'z ichiga oluvchi ushbu bosqichda tarjimachilik faoliyati noshirlik ishlari bilan birgalikda olib borilgan. Ayni davrdan tarjima metodikasida akademik uslub shakllanadi va asarlarni asl nusxasiga asoslanishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, mazkur bosqichda avvalgi bosqichlarda yaratilgan tarjimalarga tuzatishlar kiritilib, ular qayta ishlanadi. Tarjima faoliyati bu vaqtga kelib nafaqat g'arbiy va janubiy Yevropada, balki uning markaziy qismida ham alohida soha sifatida shakllana boshlaydi.

Yuqoridagi bosqichlar ichida XII–XIII asrlarni qamragan birinchi bosqich, IX–XII asrlarda ijod qilgan musulmon Sharq olimlarining asarlarini katta qiziqish ila ko'plab marotaba tarjima qilinganligi bilan ham ahamiyatlidir. Mazkur jihat, ayni bosqichda faoliyat yuritgan tarjima markazlari tarixini tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlanishiga sabab bo'lgan. Aslida ham XII–XIII asrlarda Yevropa hududida tashkil topgan tarjima markazlarining asosiy tadqiqot obyekti turli fan va sohalarga taalluqli arab tilidagi ko'p sonli asarlar edi. Avvalroq ta'kidlanganidek, ular antik davr olimlari kitoblarining arabcha nusxalari hamda o'rta asrlarda arab tilida ijod qilgan Sharq mutafakkirlari qalamiga mansub asarlardan iborat bo'lgan. Fan tarixida arabshunoslik^{*11} sohasi Yevropada aslida XVI asr so'ngida shakllangan, degan g'oya hukmronlik qilsa-da, XII–XIII asrlarda ijod qilgan tarjimonlar faoliyatining tahlili, ular arab tilidagi asarlarni nafaqat lotin tiliga o'giranliklari, balki tarjima qilingan asarlarni tadqiq etib, ayni tarjimalar asosida o'zlarning yangi-yangi asarlarini yaratganliklaridan dalolat bermoqda. Shu sababdan **XII–XIII asrlarni Yevropada arabshunoslik sohasining yuzaga kelishidagi ilk bosqich**, deb baholash to'g'ri bo'ladi.

O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimiga XII–XIII asrlarda kirgan shaharlarni ularning **geografik joylashuviga asosan 3 guruhga ajratib, o'rta asr Ispaniya tarjima markazlari** – Barselona, Mursiya, Pamplona, Saragosa, Sevilya, Segoviya, Toledo; **o'rta asr Italiya tarjima markazlari** – Neapol, Paduya, Palermo, Salerno; **o'rta asr janubiy Fransiya tarjima markazlari** – Marsel va Monpelye sifatida tasniflash lozim.

Biz mazkur tasnif asosida XII–XIII asrlarda Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya hududidagi tarjima markazlarning faoliyatini mavjud manbalar asosida o'zimizning avvalroq e'lon qilingan ishlarimizda [11, 12, 13] batafsil tavsiflashga harakat qilganmiz. Ushbu tavsifning umumiy tahlil natijasi quyidagicha:

O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimining birinchi bosqichiga kiruvchi shaharlar, ya'ni tarjima markazlarini ularning **tuzilishi, faoliyat ko'lami va mohiyatiga ko'ra 2 toifaga** ajratish lozim:

birinchi toifaga Ispaniyaning Toledo, Sevilya va Mursiya, Italiyaning Salerno va Neapol, Fransiyaning Monpelye kabi shaharlari kirib, ularda tarjima jarayonlari ilmiy yoki ta'lim muassasalarida olib borilgan. Boshqacha aytganda, mazkur shaharlarda **tom ma'nodagi tarjima muassasalari** faoliyat yuritgan;

ikkinchi toifaga Ispaniyaning Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya, Italiyaning Paduya va Palermo, Fransiyaning Marsel shaharlari kiradi. Ularda tarjima jarayonlari

^{*11}Arabshunoslik – arab xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi hamda tilini o'rganishga bag'ishlangan fanlar majmuini o'z ichiga olgani holda, asli arab bo'lmagan, ammo arab tilida ijod qilgan allomalar ilmiy merosini hamda arab tilidagi boshqa asarlarni o'rganuvchi soha.

tarjimonlarning mustaqil faoliyati ko'inishida kechgan bo'lib, tarjimonlar asosan biror bir davlat rahbari yoki diniy arbob rahnamoligida saroyda yohud shaharlarning markaziy cherkovida ijod qilishgan.

Uch hududdagi tarjimachilik ishlarining qiyosiy tahlili natijasi shuki, Ispaniya tarjima markazlarida asarlar asosan arab tilidan lotin tiliga o'g'irilgan, shuningdek, bu hududda asarlarni mahalliy tilga tarjima qilish XIII asrdayoq boshlangan. Italiya va Fransiyada esa bu jarayon XIV–XV asrlarga kelib yuz beradi. Italiya tarjimonlari qadimgi yunon olimlarining asarlarini lotin tiliga o'g'irishda, Ispaniya va janubiy Fransiya tarjima markazlarida bo'lgani kabi ularning arab tilidagi tarjimalariga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri asl yunoncha qo'lyozmalariga asoslanishgan. Janubiy Fransiya tarjima markazlarida esa asarlar asosan ibroniy tiliga o'g'irilgan.

Qayd etish lozimki, O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimining birinchi bosqichida faoliyat yuritgan **tarjimonlar** o'zagini mintaqaning turli hududlaridan bo'lgan har xil e'tiqod va elat vakillari tashkil etgan. Biz, sohadagi tadqiqotlarimiz doirasida tarjima tarixiga oid manbalar hamda ko'rib o'tilayotgan davrda yaratilgan tarjimalar qo'lyozmalarining tahlili natijasida XII–XIII asrlarda faoliyat yuritgan 69 nafar tarjimanni aniqlashga erishdik.

Ularni etnik kelib chiqishi va faoliyat geografiyasi nuqtayi-nazaridan quyidagicha tasniflash lozim:

I. Ispaniya tarjima markazlarining vakillari:

barbar^{*12}: Muhammad, Abdulmalik al-Balansiy, al-Marvon ibn al-Hakim;

ingliz: Batlik Adelard, Chesterlik Robert, Kettonlik Robert, Sareshellik Alfred, Maykl Skot;

ispan: Sevilyalik Xuan, Santalalik Hugo, Domingo Gundisalvi, Ispaniyalik Xuan, Toledolik Mark, Alvaro de Oviyedo, Ferrando de Toledo, Garsi Perez, Xuan de Aspa, Guillen Arremon, Pedro Reggio;

italyan: Dalmatlik Herman, Tivolalik Platon, Kremonalik Jerard, Olmoniyalik Herman, Edigio da Parma, Xuan da Mesina, Xuan da Kremona, Siyenalik Bonaventura;

mosarab^{*13}: Toledolik Pedro, Bernardo al-Arab;

fransuz: Puatelik Pyer;

flamand^{*14}: Bryuggelik Rudolf;

yahudiy: Pedro Alfonso, Avraam bar-Hiya, Ibn Dovud, Yahud ibn Moshe Koen, Is'hoq ibn Sid, Avraam de Toledo, Samuel de Toledo, Samuel Levi, Xosse al-Afiyat.

II. Italiya tarjima markazlarining vakillari:

arab: Salim ibn Ifriqiy;

italyan: Jovanni Plateario, kichik Jovanni Plateario, Metti Plateario, Nikola Deoprepio, Rojer Frugardo, Fedriko Lorana, Rojer Luchero, Antonio Fichchini, Jerard da Salerno, Pistoialik Akkursius, Sabbionetalik Jerard, Jakoma da Venetsiya, Rikardo Bonakosa;

yunon: Genri Aristipp, Euxenio da Palermo;

yahudiy: Avraam da Mursiya, Is'hoq da Palermo, Faraj ibn Salim, Yakov Anatoliy, Jovanni da Kapuya.

III. Janubiy Fransiya tarjima markazlarining vakillari:

ispan: Arnoldo de Villanova, Bernardo Honofredi;

fransuz: Ermengo Blez;

yahudiy: Yahud ibn Tibbon, Samuel ibn Tibbon, Moshe ibn Tibbon, Yakov ibn Tibbon, Yahud Profatiy.

Ismlari qayd etilgan tarjimonlarning ayrimlari o'z faoliyatlari davomida turli tarjima markazlarida ijod qilishgan. Misol uchun, ulardan Ispaniyadagi Toledo maktabi a'zosi Maykl Skot

*12VII asrda islom dinini qabul qilgan Shimoliy Afrikaning mahalliy aholisi. Barbarlar yashagan xudud hozirgi Marokash, Jazoir va Liviyaga to'g'ri keladi. Ular o'zlarini «amazig» yoki «amaxag» deb atashgan. Bu so'z tarjima qilinganda «hur erkak» ma'nosini beradi. «Barbar» atamasi aslida o'rta asrlarda ispaniyaliklar tomonidan ishlatilgan ekzonim bo'lib, uning analogi «varvar» so'zi hisoblanadi.

*13Pireney yarim orolining musulmonlar tomonidan zabt etilgan qismi – al-Andalusda VIII–IX asrlarda turli diniy e'tiqodlarning sintezlashuvi natijasida shakllangan qatlam. Mosarablar deyilganda o'z e'tiqodini saqlagani holda arab tili va musulmon urf-odatlarini qabul qilgan xristianlar nazarda tutilgan.

*14Belgiyaning shimolida yashaydigan, tili german tillari oilasiga mansub xalq.

TARIX

1227–1229-yillarda Italiyadagi Palermoda, Italiyaning Neapol universitetida faoliyat yuritgan Yakov Anatoliyni esa Fransiyaning Marsel shahrida ham ijod qilgan.

Sanab o'tilgan 69 nafar tarjimonni asarlarning tarjima qilishdagi ishtiroki va faoliyat doirasiga ko'ra yana bir necha guruhlariga ajratish zarur. Jumladan,

asarlarni yakka tartibda, ya'ni mustaqil tarjima qiluvchilar:

Ispaniya tarjimonlari: Pedro Alfonso, Batlik Adelard, Dalmatlik Herman, Chesterlik Robert, Kettonlik Robert, Toledolik Pedro, Sevilyalik Xuan, Sareshellik Alfred, Kremonalik Jerard, Bryuggelik Rudolf, Santalalik Hugo, Maykl Skot, Toledolik Mark, Olmoniyalik Herman, Siyenalik Bonaventura, Is'hoq ibn Sid.

Italiya tarjimonlari: Jovanni Plateario, Nikola Deoprepio, Rojer Frugardo, Euxenio da Palermo, Pistoialik Akkursius, Genri Aristipp, Sabbionetalik Jerard, Faraj ibn Salim, Yakov Anatoliy, Jakoma da Venetsiya, Rikardo Bonakosa, Jovanni da Kapuya.

Janubiy Fransiya tarjimonlari: Yahud ibn Tibbon, Samuel ibn Tibbon, Moshe ibn Tibbon, Yakov ibn Tibbon, Arnaldo de Villanova, Ermengo Blez.

Asarlarni hammualliflikda tarjima qiluvchilar:

Ispaniya tarjimonlari: Domingo Gundisalvi va Ibn Dovud, Ispaniyalik Xuan; Tivolalik Platon va Avraam bar-Hiya; Yahud ibn Moshe va Xuan de Aspa, Guillen Arremon, Garsi Perez; Pedro Reggio va Edigio da Parma; Avraam de Toledo va Bernardo al-Arab; Alvaro de Oviyedo va Ferrando de Toledo.

Italiya tarjimonlari: kichik Jovanni Plateario va Metti Plateario.

Janubiy Fransiya tarjimonlari: Bernardo Honofredi va Yahud Profatyi.

Asarlarni vositachi tilga tarjima qilishga ko'maklashuvchilar. Bu guruhga kiruvchilar lotin tiliga tarjima qilinayotgan asarlarini vositachi (kastil, ibroniy yoki yunon) tillarga o'girishda ishtirok etishgan. Biroq ular tarjimalar matnida muallif sifatida ko'rsatilmaydi.

Ispaniya tarjimonlari: Muhammad, Puatelik Pyer, Abdulmalik al-Balansiy, al-Marvon ibn al-Hakim, Samuel Levi, Samuel de Toledo, Xuan da Mesina, Xuan da Kremona, Xosse al-Afiyat.

Italiya tarjimonlari: Salim ibn Ifriqiy, Avraam da Mursiya, Is'hoq da Palermo, Fedriko Lorana, Rojer Luchero, Antonio Fichchini, Jerard da Salerno.

Yuqoridagi tasnifga kiritilgan tarjimonlarning barchasi ham musulmon Sharqi allomalari asarlarini tarjima qilish bilan shug'ullanmagan. Ulardan ayrimlari o'z faoliyati davomida asosan antik davr mualliflari qalamiga mansub asarlarni lotin yoki ibroniy tiliga o'girish bilan band bo'lishgan. Biz yuqorida sanab o'tilgan tarjimonlarning shaxsiyati va faoliyatini o'zimizning avval e'lon qilgan ishlarimizda [11] yoritib berganmiz.

Xulosa. Aslida yuqorida ilgari surilgan va biz yangi konsepsiya, deb nomlayotgan fikrlar o'rta asr musulmon Sharqi allomalari asarlarini XII–XIII asrlarda Yevropada lotin tiliga tarjima qilinishi hamda ularni tadqiq etilishi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotimizning natijaviy xulosalaridir. Shu sababdan, xulosalarga xulosa yasash biroz noo'rin bo'lishini inobatga olib, maqolada ilgari surilgan qarashlar bizning tadqiqotchi sifatidagi xulosalarimiz ekanligini, ayni masalalar yuzasidan har qanday ilmiy munozara va dialogga ochiq hamda tayyor ekanligimizni qayd etishning o'zi yetarli, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Махмудов О.В. Толедо мактаби – афсона ёки ҳақиқат: Ҳ.Ц.Сантайо ва А.Калашниковга раддиялар // Ўтмишга назар. 2021. – № 4 (4). – Б. 38–48. (Makhmudov O.V. The Toledo School – myth or reality: A refutations to J.S.Santoyo and A.Kalashnikov // Look to the Past. 2021. – Vol. 4 (Issue 11). – P. 38–48).
2. Alfonso X el Sabio. General estoria. Cuarta parte. Tomo I y II / Edición de I.F.Ordóñez y R.Orellana. – Madrid: Fundación José Antonio de Castro, 2009. – 1294 p.
3. Alverny M-T d'. Translations and translators // Renaissance and Renewal in the Twelfth Century. – Oxford: Clarendon Press, 1982. – P. 421–462.
4. Astruc J. Mémoires pour servir à l'histoire de la Faculté de médecine de Montpellier. – Paris: P.G.Cavelier, 1767. – 432 p.
5. Benjamin of Tudela. The Itinerary. / Critical text, translation and commentary by M.N.Adler. – London: Oxford University Press, 1907. – 209 p.
6. Burnett C. A group of Arabic-Latin Translators Working in Northern Spain in the Mid-12th Century // Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. 1977. – Vol. 1. – P. 62–108.
7. Burnett C. The Coherence of the Arabic-Latin Translation Program in Toledo in the Twelfth Century // Science in Context. 2001. – Vol. 14. – P. 249–288.

8. Burnett C. The Translating Activity in Medieval Spain // *The Legacy of Muslim Spain*. / Ed. S.K.Jayyusi. – Leiden, 1992. – P. 1036–1058.
9. Dulieu L. *La médecine à Montpellier. Tome 1: Le Moyen âge*. – Avignon: Presses universelles, 1975. – 416 p.
10. Lawn B. *The Salernitan Questions: An Introduction to the History of Medieval and Renaissance Problem Literature*. – Oxford: Clarendon Press, 1963. – 240 p.
11. Makhmudov O.V. *Medieval European translators of the works of Muslim Eastern scientists: from Gerbertus Aureliacus to Raymundus Lullius*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022. – 132 p.
12. Makhmudov O.V. *Studies of scientific works of Muslim East scholars in the translations centers of medieval Europe // International Journal of Early Childhood Special Education*. 2022. – Vol. 14 (06). – P. 1142–1151.
13. Makhmudov O.V. *The Toledo School – Early Center of Translation in Medieval Europe*. // *European Researcher. Series A*. 2020. – Vol. 11 (3). – P. 150–158.
14. Mazza A. *Historiarum epitome de rebus Salernitanis*. – Neapoli: Francisci Paci, 1681. – 192 p.
15. Petrus Venerabilis. *Summa totius haeresis Saracenorum*. / In *Peter the Venerable and Islam* / Ed by J.A.Kritzeck. – Princeton: Princeton University Press, 1964. – P. 115–293. – 301 p.
16. Peter the Venerable. *Writings against the Saracens*. / Trans. by I.M.Resnick. – Washington: – The Catholic University of America Press, 2016. – 189 p.
17. Rada de J.R. *Historia de los hechos de España*. / Introd., traduc., notas de J.F.Valverde. – Madrid: Alianza editorial, 1989. – 457 p.
18. Rada de J.R. *Historia arabum*. / Publicaciones de la Universidad de Sevilla: Serie Filosofía y letras. – Sevilla: Salesiana, 1974. – 92 p.
19. Salimbene da Parma. *Cronica*. / A cura di F.Bernini. – 2 vol. – Bari: Laterza e Figli, 1942. – 1005 p.
20. Santoyo J. *La edad media // Historia de la Traducción en España*. – Salamanca: Ambos Mundos, 2004. – P. 23–175 (– 873 p.).
21. Toubert P., Bagliani A.P. *Federico II e le scienze*. – Palermo: Sellerio, 1994. – 189 p.
22. *Translation in Europe during the Middle Ages* / Ed. by Elisa Borsari. – Berlin: Peter Lang Verlag, 2020. – 316 p.
23. Villani G. *Chronicle*. / Trans. by R.E.Selfe., Ed. by P.H.Wicksteed. – London: Archibald constable & Co. Ltd., 1906. – 461 p.

(Taqrizchi – tarix fanlari doktori, professor – M.X.Isamiddinov)